

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z YASASH USULLARI

Muxtorjon BAXTIYAROV,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Fotimaxon BAXTIYAROVA,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasalishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan, shuningdek, har ikki tilga oid so‘zlarning yasalishi jarayonidagi lingvistik muammolar tahlilga tortilib, amaliy yechim taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: derivatsiya, leksik derivatsiya, sintaktik derivatsiya, flektiv til, agglyutinatativ til, tillarning morfologik tuzilishi, diaxron til, sinxron til.

Абстракт. В статье рассматриваются особенности словообразования в английском и узбекском языках, а также анализируются лингвистические проблемы в процессе образования слов в обоих языках и предлагается практическое решение.

Ключевые слова: деривация, лексическая деривация, синтаксическая деривация, флективный язык, агглютинативный язык, морфологическая структура языков, диахронический язык, синхронический язык.

Abstract. The article examines the features of word formation in English and Uzbek languages, and also analyzes linguistic problems in the process of word formation in both languages and proposes a practical solution.

Key words: derivation, lexical derivation, syntactic derivation, inflectional language, agglutinative language, morphological structure of languages, diachronic language, synchronic language.

Kirish. Jahon tilshunosligida bugungi kunda asosiy e‘tibor tilning real, haqiqiy vazifasini o‘rganishga, lingvomadaniy va kommunikativ-sintaktik jihatlariga qaratilmoqda. Bu fenomen tilning barcha sarhadlarini chuqur va mukammal bilishga hamda tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi, chunki tilning mavjudlik va funksional-semantik qonuniyatlarini bu yo‘l bilan tadqiq etilishi hozirda juda dolzarb bo‘lib turgan til lug‘at tarkibining boyib borishi hodisasi, ularning potentsiali kabi muammolarni anglab yetish, bu kabi masalalarga yechim topish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan chet tilini o‘rganish jarayonida so‘zlarning

struktural-semantik jihatlar bilan bir qatorda ularning derivasion potensialini ham izchil talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida muayyan tillarda yangi soʻzlarni yasash yoki oʻzlashtirish uchun implisit va eksplisit jihatdan taʼsir koʻrsatuvchi oʻziga xos belgilar, ularning oʻxshash va farqli jihatlar qiyosiy-tipologik metodlar asosida atroflicha tahlil qilinmoqda. Bugun dunyoning koʻplab taʼlim muassasalari va tadqiqot markazlarida, xususan, Rus tilshunosligi, Avstraliya va Buyuk Britaniyaning Amaliy tilshunoslik maktablarida shuningdek, oʻzbek tilshunosligi maktablarida derivatologiya masalalariga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa tabiiy tillarni leksik-semantik, sintaktik, morfologik va lingvopragmatik jihatlarining bir-biridan turli darajada farqlanishi sababli bir necha tillar tarkibida oʻzaro chogʻishtirib oʻrganish muhim ekanligini koʻrsatadi hamda ingliz va oʻzbek tilidagi oʻzakdosh soʻzlarning qiyosiy-funksional xususiyatlarini tilshunoslikning soʻnggi yutuqlari va amaldagi ilgʻor usullaridan foydalangan holda ilmiy tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda chet tillarni oʻrganish tizimini, fan va taʼlimni amaliyot bilan uzviy integratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish, derivatsiya hodisasi, uning turlari va qamrov darajasi sintaktik hamda semantik jihatdan atroflicha, boy lingvistik materiallar asosida tadqiq qilish ilgʻor xorijiy tajribalarga tayangan holda ingliz tili bilan chogʻishtirma tadqiq qilishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Tilshunoslik fanining bugungi taraqqiyot davriga qadar til sistemasi bilan bogʻliq juda koʻp muammoli jarayonlar tadqiq etildi. Bu holatni jahon tilshunosligi doirasida ham, shuningdek, oʻzbek tilshunosligi doirasida ham aytish mumkin. Jahon tilshunosligi taraqqiyotiga F.de Sossyur, V.fon Gumboldt, L. Blumfeld, Boduen de Kurtene, Sh.Balli, Ye. Kurilovich, N.S.Trubeskoy, A.Martine, N.Xomskiy, L.Tenyer kabi koʻpgina tilshunos olimlar tomonidan qilingan tadqiqot ishlari salmoqli hissa boʻlib qoʻshildiki, buni barcha tilshunoslar toʻliq eʼtirof etishmoqda. Shunday boʻlsa-da, tilshunoslik fani ham barcha fanlar singari muntazam rivojlanishda. Shu bois tilshunoslikda bugungi kunda ham muammoli jarayonlarning boʻlishi tabiiydir. Bunday muammolar sirasiga derivatsiya hodisasining oʻzakdosh soʻzlar doirasida kam oʻrganilganligi bilan bogʻliq masalalarni ham kiritish oʻrinli, zero, ingliz tilshunosligida ham, oʻzbek tilshunosligida ham oʻzakdosh soʻzlar derivatsiyasi muammolari hozirgi kunga qadar mukammal oʻrganilgan emas. Tilda mavjud boʻlgan har qanday yangi soʻz oʻzining boshlangʻich shaklini nutqdan oladi va shu bilan yasalgan soʻzning nutqqa qaramligi oʻz nihoyasiga yetadi, chunki yasalgan

soʻzning keyingi hayoti tilda davom etadi, yaʼni yasama soʻz maʼlum vaqt davomida ijtimoiy nutqiy faoliyat sinovidan oʻtganidan keyin oʻziga tegishli analogik shakllar paradigmasidan oʻrin egallaydi. Shu kabi sinovlardan toʻliq oʻtgan derivatlarga til birligi maqomini oladi va boshqa paradigmadoshlari bilan birga tilni yangi yasalmalar bilan boyituvchi vosita sifatida faoliyat koʻrsata boshlaydi. Garchi F. de Sossyur soʻz yasalishi yoki boshqa turdagi derivation hodisalarini tadqiq etishni asosiy maqsad qilmagan boʻlsa ham, uning tadqiqotlarida til va nutqqa xos sintagmalarning farqlanishi, ularning lingvistik analogiya jarayoni bilan bogʻliq holda tavsif etilishi, analogik qoidalarning paydo boʻlishida ichki va tashqi omillarning ahamiyatiga doir qarashlari leksik va semantik derivatsiya hodisalari talqinida nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Zero, soʻz yasalishi, umuman, tilga oid barcha derivation jarayonlarni shu kabi bogʻliqlikda tadqiq etish orqali mazkur jarayonlarning namoyon boʻlishida shaxs omili naqadar muhim ekanligiga aniqlik kiritish imkoniyati tugʻiladi.

Soʻz yasalishi tilshunoslikning barcha derivatsion jarayonlari, aniqrogʻi, soʻz hosil qilish (soʻz yasalishi) va u bilan bogʻliq boshqa qator masalalarni oʻrganuvchi boʻlimi hisoblanadi. Bu boʻlim derivation jarayonning tilda bor boʻlgan maʼlum usullari, modellari asosida yangi soʻz hosil qilish kabi hodisalarini oʻrganadi va oʻz ichiga oladi. Soʻz yasalishining morfologik usulida soʻz asosiga soʻz yasovchi morfema qoʻshish yoʻli bilan yangi soʻz hosil boʻlishi kuzatiladi. Soʻz yasalishi tahlilida soʻzning yasash strukturasi aniqlash, oʻrganish va shu nuqtai nazardan boʻladigan barcha tahlil proseduralari amalga oshiriladi. Bunda soʻz yasovchi komponentlarning xarakteri, maʼno munosabatlari, shuningdek, soʻz yasovchi asos bilan hosila soʻzning oʻzaro munosabatlari atroflicha oʻrganiladi. Ingliz tilida “soʻz yasalishi” tushunchasini anglatish uchun quyidagi terminlar qoʻllanadi: 1) word-formation; 2) word-building; 3) word-derivation. Bu uch soʻz sinonim boʻlib, ayniqsa, birinchi va ikkinchi soʻzlar absolyut sinonim. Word derivation soʻz birikmasining maʼnosi juda keng, u soʻz yasashning barcha turlarini oʻziga qamrab oluvchi “rodovoye ponyatiye” sifatida namoyon boʻladi. Soʻz yasash jarayonida qoʻllangan vositalarga koʻra soʻz yasash quyidagi turlarga boʻlinadi.

1. Affixation (slovoproizvodstvo). Bunda asosan, affiksatsiya usuli, yaʼni suffikslar va prefikslar qoʻllaniladi: a work (ish), a worker (ishchi).
2. Word composition: week-end, office-management, postage-stamp.
3. Conversion: the old, the blind, the poor.
4. Abbreviation or shortening: NASA, USA, UNO.

Oʻzbek tilida soʻz yasalishining quyidagi usullari bor: a)fonetik; b) morfologik; v)leksik-sintaktik; g)leksik-semantik. Soʻz yasash asosi yangi soʻzning yasalishida

asos bo'ladigan qismidir. Masalan, o'zbek tilida tilak so'zi uchun tila, tilakdosh so'zi uchun tilak yasash asosi hisoblanadi. Morfologik usulda so'zlar asosga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yasaladi. Buni o'zakdosh so'zlar misolida ko'rishimiz mumkin: tin-tinch, tiniq, tinim, tinimsiz. Leksik-sintaktik usulda til taraqqiyoti jarayonida so'z birikmasining so'zga aylanishi natijasida yangi so'z hosil bo'lishi tushuniladi. Masalan: ingliz tilida blackboard (a board which is black), snow-maid (a maid which is made of snow) va o'zbek tilida mingboshi (mingning boshi), oshpichoq kabilar (qo'shma va juft so'zlar) so'zning leksik-sintaktik usul bilan yasashiga misol bo'ladi: ko'zoynak, beshiktebratar, xontaxta, oybolta; oldisotdi(savdo), qozon-tovoq(ro'zg'or), bordi-keldi(munosabat ma'nolari yasalgan). So'z yasashining leksik-semantik usuli deb so'z ma'nosining o'zgarishi (yangi ma'no kasb etishi) natijasida yangi so'z hosil bo'lishi, shu yo'l bilan polisemiya va omonimlarning yuzaga kelishiga aytiladi. Masalan: ko'k (osmon), oy (30 kun) so'zlari ko'k (rang nomi), Oy (yer yo'ldoshi nomi) so'zlari leksik-semantik usul bilan hosil bo'ladi. So'z yasashi zanjiri bir o'zak morfemaga ega bo'lgan, o'zaro birinketin motivlanuvchi holatdagi so'zlar qatorini ifodalasa, so'z yasash ma'nosi deyilganda, ayni bir yasovchi vositasida hosil qilingan (motivlangan) so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'no tushuniladi. Misollarga murojaat qilamiz: o'rim, terim so'zlari uchun umumiy bo'lgan, ularni o'r, ter so'zlaridan farqlovchi ma'no, ya'ni hosila ma'no nazarda tutilgan. So'z yasashi quyidagi uch umumiy belgisi bilan xarakterlanadi, ya'ni: 1) yasovchi negiz (motivlovchi so'z) bir turkumga oid bo'lgan, 2) ayni yasovchi affiks bilan yasalgan, 3) so'z yasash ma'nosi bir xil bo'lgan turi. Masalan, otlardan -li affiksi yordamida yasilib, o'zakdan anglashilgan narsaga egalikni ifodalovchi kuchli, qumli, yog'li kabi sifatlar so'z yasashining bir tipi hisoblanadi. So'z yasash uyasi, ya'ni o'zakdosh so'zlar deyilganda bir o'zakdan yasalgan so'zlarning so'z yasash zanjirlari asosidagi yig'indisi tushuniladi: ish – ishla, ish – ishchi, ish – ishsizlik.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, so'z yasashi, shuningdek, qo'shma so'zlarning yasashiga doir dastlabki mulohazalar tilshunoslik tarixining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Xususan, O'rta Osiyo tilshunosligida bu masalaning ilk tadqiqi M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida, Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asarida ko'zga tashlansa, Yevropa tilshunosligida so'z yasashiga doir dastlabki mulohazalar XVIII-XIX asrlarga doir manbalarda tilga olinadi. Xususan, V.fon Gumboldt merosida til formasi va uning analogik tabiatiga doir qarashlari orqali F.de Sossyur ijodida esa

sintagmalarning analogik xususiyatlari va analogik formalar haqidagi fikri ana shular jumlasidandir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Соссюр Ф. де. Заметки по общей лингвистике. – М.: Прогресс, 1990. – 280 с.
2. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – 400 с.
3. Блумфилд Л. Язык. – Москва: Прогресс, 1968. – 608 с.
4. Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М.: Иностранная литература, 1962. – 406 с.
5. Chomsky Noam. Knowledge of Language. – N.Y.: Greenwood Publishing Group, 1986. – 307 p.; Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – 656 с.
6. Махмуд Қошғарий. Девону луғотут-турк. – Т., 1960. – Б.50.
7. Алишер Навоий. Муҳокаматул луғатайн / Қосимжон Содиков таҳлили, тадбили ва талқини остида. – Тошкент: Академнашр, 2017. - Б. 59-70.
8. Блумфилд Л. Язык. – Москва: Прогресс, 1968. – 608 с.
9. Бахтияров М.Я. Проблемы системного описания словосочетания в современной лингвистике. “Формирование Казахской государственности и историко-культурные ценности туркского мира.” материалы международной научно-практической конференции. Шымкент-2009. 0.4. б.т. 185-188 бетлар.